

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI QARSHI FILIALI**

**UZAQOV ORTIK SHAYMARDANOVICH**

**RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA ISH BILAN  
BANDLIK SHAKLLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.16. – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**UDK: 330:004:331.5(575.1)**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)  
in economic sciences**

**Uzaqov Ortik Shaymardanovich**

Raqamli transformatsiya sharoitida ish bilan bandlik shakllarini  
takomillashtirish ..... 3

**Узаков Ортик Шаймарданович**

Совершенствование форм занятости в условиях цифровой  
трансформации ..... 27

**Uzakov Ortik Shaymardanovich**

Improvement of employment forms in the conditions of digital  
transformation..... 51

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 55

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.07.2022.I.16.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI QARSHI FILIALI**

**UZAQOV ORTIK SHAYMARDANOVICH**

**RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA ISH BILAN  
BANDLIK SHAKLLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.16. – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Iqt2835 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filialida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Ubaydullayev G'ayrat Zuvaytovich**  
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Maxamatov Nurilla Ergashevich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Abidov Abdujabbar Abduxakimovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.07.2022.I.16.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49 uy. Tel.: (998 71) 239-28-72, Faks: (998 71) 239-43-51; e-mail: [tdu@tdu.uz](mailto:tdu@tdu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49 uy. Tel.: (998 71) 239-28-72, Faks: (998 71) 239-43-51; e-mail: [tdu@tdu.uz](mailto:tdu@tdu.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.

(2025-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**Sh.E. Sindarov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**J.S. Fayzullayev**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**T.S. Qo'chqorov**

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot  
fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonlari, masofaviy ish bilan bandlik, outsorsing va frilanser xizmat ko'rsatish sohalari mehnat bozorining segmentlaridan biriga aylanmoqda. Raqamli iqtisodiyotda mehnat munosabatlarining rivojlanishi doimiy xodimlarni vaqtinchalik ishchilar bilan almashtirishga olib keladi, ayni paytda ko'plab turdagi ishlarni ofisdan minglab kilometr uzoqlikda va hatto milliy chegaralardan tashqarida ham bajarish mumkin shu so'nggi yillardagi sezilarli tendentsiya birgina frilanserlar sonining juda tez o'sishi va bugungi kunda rivojlangan mamlakatlardan biri AQSHda 2021-yilda 67,3 million kishi frilanser (shu jumladan o'zini-o'zi band qilgan shaxslar) sifatida ishlagan, bu mamlakatning mehnatga layoqatli aholisining 36 foizini tashkil etadi<sup>1</sup>. Bugungi kunda raqamli masofaviy platformalar paydo bo'lishi mehnat bozorida segmentatsiyalash ta'siri ostida o'zgarishlarga, inson kapitali yangi sharoitlarga moslashishni va mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sirini yoritish jarayonlarini tadqiq etishni talab qilinadi.

Jahonda global raqamlashtirish va intellektuallashtirish raqamli texnologiyalarni samarali rivojlantirishga oid ilmiy-tadqiqotlar olib borish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada ishchi kuchining mobilligini oshirish, ish bilan bandlikning zamonaviy shakllarini joriy etish, raqamli iqtisodiyot infratuzilmasini rivojlantirish, aholining ijtimoiy-demografik guruhlari ehtiyojlarini hisobga olgan holda yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha maqsadli davlat buyurtmalarini shakllantirish, ish bilan bandlikning zamonaviy shakllarini kengaytirish kabi ilmiy yo'nalishlar muhim ahamiyatga egadir.

Yangi O'zbekistonni barpo etish sharoitida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, aholini ish bilan bandlik darajasini oshirish va mehnat resurslaridan samarali foydalanishning zamonaviy shakllarini joriy etishga hamda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari bo'yicha ishchi kuchi taqsimoti, mehnat samaradorligini oshirish, mehnat resurslari sifat tarkibini takomillashtirish, ish bilan bandlik tarkibini o'zgartirish, ish kuchi mobilligini oshirish, masofaviy ish bilan bandlikni takomillashtirish, ish vaqtining davomiyligi va tabaqalashishi kabi masalalarga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Xususan, mamlakatimiz rahbarining ta'kidlashicha "Kambag'allikni kamaytirish - bu aholida tadbirkorlik ruhini uyg'otish, insonning ichki kuch-quvvati va salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish, yangi ish o'rinlari yaratish bo'yicha kompleks iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni amalga oshirish, demakdir"<sup>2</sup>. Bu vazifalarni hal etishda raqamli iqtisodiyot soha va tarmoqlarida ish bilan bandlikning zamonaviy shakllarini joriy etish, ish bilan bandlik shakllanishining xususiyatlari va dinamikasini baholash, raqamli iqtisodiyotda norasmiy ish bilan bandlikning dinamikasi, ish bilan bandlikni tartibga solish, tashkilotlarda outsorsing va frilanserlikni tashkil etishning zamonaviy shakllari, dunyo outsorsing va frilanserlik xizmatlari bozorini tadqiq etish kabi yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqotlarni chuqurlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

<sup>1</sup> <https://freelancersunion.org/resources/>

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi, 25.01.2020. <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-oliy-25-01-2020>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 27-yanvardagi PF-104-son “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2024 yil 1 fevraldagi PQ-51-son “Raqamlashtirish sohasida malakali mutaxassislar tayyorlash faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2024-yil 9-yanvardagi PQ-7-son “2024 yilda yangi ish o‘rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko‘maklashish dasturi to‘g‘risida”, 2022-yil 30-avgustdagi PQ-366-son “Norasmiy bandlik ulushini qisqartirish hamda mehnat resurslari balansini zamonaviy yondashuvlar asosida shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya mavzusi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Xorijlik olimlarning ilmiy ishlarida mehnat bozorining shakllanishi va rivojlanishi, ish bilan bandlik tarkibidagi o‘zgarishlar, sohalarning integratsiyalashuvi va yangi kasblarning paydo bo‘lishi, raqamli texnologiyalari ta‘sirida ish bilan bandlikni rivojlanishi, ish bilan bandlik tarkibidagi o‘zgarishlar, uning tuzilishi va shakllari hamda ta‘sir qiluvchi omillarni va amaliyotga tadbiq etish masalalarini ayrim jihatlari yoritib berilgan. Xususan, A.Smit, J.B.Sey, J.M.Keyns, A.Marshall, L.Mizes, A.Pigu, F.Xayek, M.Fridmen<sup>3</sup>, D.Bell, Dj.Gelbreyt, P.Draker, M.Kastels, F.Uebster, Yu.G.Odegov<sup>4</sup>, V.V.Pavlova<sup>5</sup>, M.Falk, M.Vorter, M.Pianta, X.Shmits, D.Vest<sup>6</sup>, V.N.Bobkov, R.I.Kapelyushnikov,

<sup>3</sup> Smith A. The Wealth of Nations. – Aegitas, 2016. – 685 p.; Say J.B. Jean-Baptiste Say and Political Economy. – Taylor & Francis, 2016. – 280 p.; Keynes J.M. The general theory of employment, interest, and money. – Springer, 2018. – 404 p.; Marshall A. Industry and trade. – Vani Prakashan, 2015. – 556 p.; Мизес Л. Человеческая деятельность: трактат по экономической теории. – Litres, 2017. – 770 с.; Pigou A.C. Theory of unemployment. – Routledge, 2013. – 348 p.; Hayek F.A. The constitution of liberty: The definitive edition. – Routledge, 2013. – Т. 17. – 596 p.; Friedman M. Theory of the consumption function. – Princeton university press, 2018. - 258 p.

<sup>4</sup> Экономика труда: учебник и практикум для вузов / Ю.Г. Одегов, Г.Г. Руденко. – 3-е изд., перераб. и доп. – Москва: Издательство Юрайт, 2020. – 387 с.; Мобильность и стабильность на российском рынке труда / Под ред. В.Е.Гимпельсона, Р.И.Капелюшников. – М.: Высшая школа экономики (ГУ ВШЭ), 2017. – 536 с.; Бобков В.Н., Вередюк О.В., Колосова Р.П., Разумова Т.О. Занятость и социальная прекарнизация в России: введение в анализ. – М.: ТЭИС. 2014. – 96 с.

<sup>5</sup> Falk M., Biagi F. The impact of ICT and e-commerce on employment in Europe //Journal of Policy Modeling. – 2017. – V. 39. – №1. – P. 1-18; Balsmeier, B., Woerter, M. Is this time different? How digitalization influences job creation and destruction. Research Policy, 48(8), 2020; Pianta M. Technology and Work: Key Stylized Facts for the Digital Age //Handbook of Labor, Human Resources and Population Economics. – 2020. – P. 1-17.; Schmitz H. Technology and employment practices in developing countries. - Routledge, 2018. – 266 p.; West, D. M. The future of work: Robots, AI, and automation. The future of work: Robots, AI, and automation. 2018. – 205 p.

<sup>6</sup> Bell D. The Winding Passage: Sociological Essays and Journeys. – Routledge, 2019. – 399 p.; Galbraith J. K. The culture of contentment. – Princeton University Press, 2017. – 176 p.; Drucker P. F. The essential drucker. – Routledge, 2020. – 294 p.; КастельС. Информационная эпоха. Экономика, общество и культура. – Litres, 2019. – 609 с.; Webster F. Theories of the information society. - Routledge, 2014. – 404 p. Одегов Юрий Геннадьевич, Павлова Валентина Васильевна Новые технологии и их влияние на рынок труда // Уровень жизни населения регионов России. 2018. №2 (208). – С. 60-70

R.P.Kolosova, G.G.Rudenko, T.O.Razumova<sup>7</sup> kabi olimlarning va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

Shu bilan birga, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) davlatlarida outsorsing va freelansing xizmatlarini rivojlantirish, ushbu sohalar boshqaruv tizimini takomillashtirish sohalarini tadqiq etish bo'yicha D.Komissarov<sup>8</sup>, B.A.Anikin<sup>9</sup>, S.O.Kalendjyan<sup>10</sup>, J.B.Xeyvud<sup>11</sup>, D.M.Mixaylov<sup>12</sup>, S.Pushkin<sup>13</sup>, S.Sayfiyeva<sup>14</sup>, L.A.Vasilenko<sup>15</sup>, O.Melnik<sup>16</sup> va boshqalar ilmiy izlanish olib borganlar.

O'zbekistonda mehnat bozorining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishi, mehnat munosabatlarini tartibga solish, ish bilan bandlikning zamonaviy va nostandart shakllarini tadqiq qilish, inson kapitalini rivojlantirish hamda raqamlashtirish bo'yicha muammolarini R.A.Ubaydullayeva, Q.X.Abdurahmonov, S.S.G'ulomov, B.X.Umurzakov, Z.Ya.Xudoyberdiyev, B.A.Islamov, D.N.Raximova, N.X.Raximova, N.K.Zokirova, R.R.Xasanov, N.U.Arabov, G.K.Abduraxmonova, F.R.Sagidullin, B.A.Maxkamov, X.X.Mamadaliyeva<sup>17</sup>, Q.O.Otajonov<sup>18</sup> va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Ta'kidlash lozimki, ushbu iqtisodchi olimlarning ilmiy asarlarida ish bilan bandlik tarkibi o'zgarishining ilmiy-uslubiy va amaliy jihatlarini o'z aksini topgan<sup>19</sup>. Zamonaviy ish bilan bandlik sohasida siyosat yuritish uchun konvensiyalar va tavsiyalar ko'rinishida xalqaro mehnat me'yorlari hamda ijtimoiy mehnat

---

<sup>7</sup> Экономика труда: учебник и практикум для вузов / Ю.Г. Одегов, Г.Г. Руденко. – 3-е изд., перераб. и доп. – Москва: Издательство Юрайт, 2020. – 387 с.; Мобильность и стабильность на российском рынке труда / Под ред. В.Е.Гимпельсона, Р.И.Капелюшниковой. – М.: Высшая школа экономики (ГУ ВШЭ), 2017. – 536 с.; Бобков В.Н., Вередюк О.В., Колосова Р.П., Разумова Т.О. Занятость и социальная прекаризация в России: введение в анализ. – М.: ГЭИС. 2014. – 96 с.

<sup>8</sup> Комиссаров Д. Привыкание к аутсорсингу [Электронный ресурс] / Режим доступа:3362108

<sup>9</sup> Аникин, Б.А. Аутсорсинг: создание высокоэффективных и конкурентоспособных организаций / Б.А.Аникин. – М.: Инфра. – М, 2007. – 184 с.;

<sup>10</sup> Календжян С.О. Аутсорсинг и делегирование полномочий в деятельности компаний – М.: Дело, 2003. С.16;

<sup>11</sup> Хейвуд, Дж.Брайан Аутсорсинг: в поисках конкурентных преимуществ / пер. с англ. Н.Е.Метоль, И.С. Половицы. – М.: Издательский дом «Вильямс», 2004. С.40.;

<sup>12</sup> Михайлов, Д.М. Аутсорсинг. Новая система организации бизнеса: учебное пособие / Д.М.Михайлов. – М.: КНОРУС, 2006. – 256 с.;

<sup>13</sup> Пушкин С. Что такое аутсорсинг? [Электронный ресурс] М.Савостьянов. – Режим доступа: <http://www.klerk.ru/boss/articles/4659>;

<sup>14</sup> Сайфиева С. Аутсорсинг в свете экономической теории // Вестник Государственного ун-та управления. Сер. Развитие отраслевого и регионального управления. – 2007. -№3. – С. 175-180;

<sup>15</sup> Василенко Л.А. Аутсорсинг – инновационная кадровая технология – государственной службы / Л.А.Василенко. –СПб: Наука, 2007. – 216 с.;

<sup>16</sup> Мельник, О. Аутсорсинг: от мечты к реальности [Электронный ресурс] / О.Мельник. -2010. – Режим доступа: <http://www.crn.ru/numbers/spec-numbers/detail.php?ID=31888>

<sup>17</sup> Зокирова Н.К., Абдурахманова Г., Сагидуллин Ф.Р. Трансформация форм занятости в инновационном развитии // International scientific review. 2020. №LXX. – С. 24-28.

<sup>18</sup> Otajonov Q.O. “Autsorsing xizmatlarini rivojlantirish asosida davlat xaridlarini sifatli ta'minlash yo'llari” 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti ixtisosligi bo'yicha iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya avtoreferati. Urganch – 2023, 61b.

<sup>19</sup> Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти: назария ва амалиёт. Дарслик. Қайта ишланган ва тўлдирилган 3-нашри. Т.: “FAN”, 2019. – 592 б.; Убайдуллаева Р.А., Ата-Мирзаев О.Б., Умарова Н.О. Ўзбекистон демографик жараёнлари ва аҳоли бандлиги (илмий ўқув қўлланма). – Т.: Университет, 2006. – 165 б.; Abdurakhmanov K.H. Zokirova N.K., Islamov B., Hiwatari M. Systemic transformation and sustainable human development: the Case of Uzbekistan. Jakarta: Gunadarma Publisher, – 2016. – p. 230; Умурзаков Б.Х. ва б. Меҳнат ресурслари шаклланиши ва таксимланишининг ҳудудий хусусиятлари. Монография. – Т.: «LESSON PRESS» 2017. – 188 б.; Худойбердиев З.Я. ва б. Тадбиркорлик ва ишга жойлаштириш технологияси. Ўқув қўлланма. «ILMZIYO» 2016; Абдурахмонова Г.К. Аҳолини муносиб меҳнат таъминллари асосида иш билан таъминлаш. Монография. – Т.: IQTISODIYOT, 2017. – 131 б.

muammolarini hal etishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish; raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish asosida ish bilan bandlikning zamonaviy shakllarini tartibga solish; ish kuchiga talab va taklif o'rtasida bozor muvozanatiga erishish, ish kuchi mobilligini oshirish va ishsizlikni kamaytirish; munosib ish o'rinlarini yaratish va ularning sifatini oshirish hamda inson resurslarining raqobatbardoshligini oshirish; zamonaviy ish bilan bandlikni ta'minlash sohasida maqsadli dasturlarni ishlab chiqish, ish vaqti va ish haqi shakllarini joriy etish bilan bog'liq tadqiqotlar keng miqyosda olib borilmoqda.

Shu bilan birga, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida zamonaviy mehnat bozorining rivojlanishi, ish bilan bandlik tarkibining o'zgarishi va ishchilarni ijtimoiy himoya qilinmaganligining namoyon bo'lishi hamda umumiy holda bu yo'nalishdagi islohotlarni qaysi yo'nalishda olib borish masalalari ham o'z yechimini kutmoqda. Bu muammolar raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida ayrim jihatlari o'rganilmaganligi tadqiqot mavzusining dolzarbligi, uning maqsadi va asosiy vazifalarini to'g'ri aniqlashga imkon yaratadi.

Mavjud xorijiy va mahalliy ishlarning aksariyati faqat "business process outsourcing(BPO)" logistik dasturiy mahsulotlar, "freelancer" va "autstaffing", dasturiy mahsulotlar eksportini rivojlantirish hamda masofaviy ish bilan bandlik xizmatlari bozorining ayrim segmentlariga qaratilgan.

Ushbu sohalarda olib borilayotgan nazariy tadqiqotlar va to'plangan amaliy tajribaga qaramay, BPO logistik dasturiy mahsulotlar, freelanser va autstaffing, dasturiy mahsulotlar eksportini rivojlantirish hamda masofaviy ish bilan bandlik xizmatlari bozori sekin rivojlanmoqda. Ushbu masala bo'yicha nashrlarning mavjudligi xizmatlar bozorining shakllanishi va faoliyati nazariyasini ishlab chiqadigan chuqur va tizimli tadqiqotlar bilan kelmaydi.

Tashkilotlarda autsorsing, freelanser va autstaffing xizmatlarini amalga oshirish, xizmatlar ko'rsatish sifatini oshirishda tanlov asosida jalb qilingan tashkilotlar, byudjet muassasalari, tijorat va notijorat tashkilotlari o'rtasida sog'lom raqobatni tashkil etish, tashqi yetkazib beruvchilarni jalb qilish orqali cheklangan byudjet mablag'larini tejash imkonini beruvchi xizmatlardan foydalanishning nazariy, uslubiy jihatlarni tadqiq etishning yetarlicha o'rganilmaganligi va keng joriy qilish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiya hamda takliflar ishlab chiqish zarurati dissertatsiya mavzusini tanlashda asos bo'lib xizmat qildi.

### **Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.**

Dissertatsiya tadqiqoti Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq PZ-20170928644 - "O'zbekiston qishloq aholisini ish bilan ta'minlash muammolari" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** raqamli transformatsiya sharoitida bandlikning zamonaviy shakllarini rivojlantirish maqsadida dasturiy mahsulotlar eksportini ta'minlovchi model va tizimlarni ishlab chiqish hamda joriy etishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

raqamli transformatsiyalash sharoitida ish bilan bandlik shakllarining nazariy asoslarini tahlil etish va masofaviy xizmat ko'rsatish shakllari;

raqamli iqtisodiyotda norasmiy ish bilan bandlik tizimlarining rivojlanish xorijiy tajribalarini o‘rganish, freelans bozori va raqamli platformalari;

O‘zbekistonda zamonaviy ish bilan bandlikni ta‘minlash mexanizmini takomillashtirish, mehnat bozori va masofaviy ish bilan bandlikni tashkil etish;

raqamli transformatsiya sharoitida hukumat va iqtisodiyot tizimlarini istiqbolli rivojlantirish, IT tadbirkorlar uchun G2B xizmatlarini rivojlantirish;

raqamli iqtisodiyot tizimini rivojlantirish uchun IT-mutaxassislarni tayyorlash va institutsional muhitni shakllantirish istiqbollari;

biznes jarayonlari outsorsingi va o‘zini-o‘zi band qilishning zamonaviy usullari hamda istiqbollari, BFA modelini ishlab chiqish;

Qashqadaryo viloyatida masofaviy bandlik shakllarini rivojlantirishning model va algoritmlari;

ish bilan bandlikni rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqishni joriy etish mexanizmlari va algoritmlari;

raqamlashtirish sharoitida zamonaviy bandlik shakllarini joriy etish samaradorligi va prognoz parametrlari.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O‘zbekiston Respublikasi kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi Qashqadaryo viloyati kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi tashkilotlari tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmeti** bo‘lib, raqamli transformatsiya sharoitida ish bilan bandlik shakllarini takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan tashkiliy-iqtisodiy munosabatlardir.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertasiyada iqtisodiy, matematik, statistik va ekonometrik modellashtirish, statistik guruhlash, monografik kuzatish, tizimli tahlil, qiyosiy taqqoslash, abstrakt-mantiqiy fikrlash, kompleks va tizimli yondashuv, umumiy ilmiy va statistik usullar, induksiya-deduksiya, ijtimoiy tadqiqot hamda istiqbolli bashoratlash usullaridan keng foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “ish bilan bandlikning zamonaviy shakllari va turlari” tushunchasining iqtisodiy mazmuni bandlikni ta‘minlash bilan bog‘liq xarajatlarni minimallashtirish, mehnat sifatini ta‘minlash va belgilangan muddatlariga rioya qilish maqsadida yuqori ixtisoslashgan kompaniyalar yoki alohida mutaxassislarni jalb qilish orqali mijozning asosiy bo‘lmagan funksiyalarini bajarishni o‘z ichiga olgan biznes hamkorlikning “yumshoq” (soft) tavsifdagi xizmat turi nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

biznes jarayonlar outsorsingi, masofaviy xizmat ko‘rsatish va o‘zini-o‘zi band qilishni qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan raqamli platformani joriy etish asosida IT-outsorsing ( $A_{IT}=0,45$ ), frilanser ( $F=0,35$ ) va autstaffing ( $AS=0,2$ ) turlari o‘rtasidagi maqbul nisbatni shakllantirish orqali samarali bandlikni ta‘minlash asoslangan;

ish beruvchi korxonalar va xodimlar o‘rtasidagi ishga yollash jarayonlarini tashkil etishni masofaviy ish bilan bandlik tizimini qo‘llash imkonini beruvchi raqamli onlayn mehnat birjalari orqali uch tomonlama mehnat munosabatlarini yo‘lga qo‘yish asosida ish bilan bandlik shakllarini diversifikasiyalash asoslangan;

O‘zbekistonda tashkilotlar faoliyatining sifat va samaradorligini oshirish, masofaviy ishlash orqali aholi bandligini ta‘minlashning zamonaviy shakllarini takomillashtirish hamda dasturiy mahsulotlar eksporti hajmini oshirishda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari ko‘rsatish hajmining 2028 yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

raqamli transformatsiyalash sharoitida BPO logistik boshqaruvning IT-outsourcing, freelancer va autstaffing turlari bo‘yicha bandlikni ta‘minlash mexanizmi takomillashtirildi va mualliflik ta‘rifi ishlab chiqildi;

BPO logistik dasturiy mahsulotlar, freelancer va autstaffing tushunchalariga hususiyatlari nuqtai nazaridan aniqlik kiritildi - foydalanish maqsadi, xizmatlar tasnifi mintaqa doirasida va boshqaruv turlari (strategik, taktik, operativ), xizmat ko‘rsatish tashkilotlariga qo‘yiladigan talablar va ushbu xizmatlarni bozorda mikro va makroiqtisodiy darajada tarqatish shakllari shakllantirildi;

logistik biznes dasturiy mahsulotlar eksportini rivojlantirishda, zamonaviy bandlik mexanizmi shakllantirish orqali BPO logistik dasturiy mahsulotlar, freelancer va autstaffing xizmatlarining “BFA” logistika modeli vositasida muzokaralar jarayoni, shartnomalar tuzish, bajarish xarajatlarni kamaytirish hamda biznesga yo‘naltirilgan tuzilmalarni yaratish va raqobatbardoshligini oshirish jihatidan yondashuvlar tahlil qilindi;

biznes jarayonlari aytorsing, masofaviy xizmat ko‘rsatish va o‘zini-o‘zi band qilish, dasturiy mahsulotlar eksporti hajmini oshirish hamda “IT” tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-qo‘vvatlash, IT-outsourcing, BPO logistik dasturiy mahsulotlar, autstaffing va freelancerlik sohalarini istiqbolli rivojlantirish maqsadida “bpofreelance.uz” raqamli platformasi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi;

masofaviy ishlash aholi bandligining zamonaviy formati tashkilotlarning sifat va samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan masofaviy ish bilan bandlik, BPO logistik dasturiy mahsulotlar, freelancer va autstaffing, dasturiy mahsulotlar eksporti hajmini oshirishda aloqa va axborot hamda “IT” tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-qo‘vvatlash xizmatlarini 2024-2028-yillarga mo‘ljallangan rivojlanish istiqbollarning prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqildi va samaradorligi aniqlandi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Qo‘llanilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlar, tahlil usullari va ma‘lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik statistika usullari yordamida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi. Dissertasiya ishini tayyorlash jarayonida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xorijlik yetakchi iqtisodchi olimlarning masofaviy xizmat ko‘rsatish va o‘zini-o‘zi band qilish, dasturiy mahsulotlar eksporti hajmini oshirishda aloqa va axborot hamda “IT” tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-qo‘vvatlash xizmatlarini iqtisodiy baholash mexanizmlarini takomillashtirish masalalariga bag‘ishlangan ilmiy-nazariy qarashlarini qiyosiy va tanqidiy tahlil qilish, tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan metodologik yondashuv va usullarning asoslanganligi, axborot bazasining rasmiy manbalardan olinganligi, taklif va tavsiyalarning amalda sinovdan o‘tganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertasiyada ishlab chiqilgan uslubiy taklif va tavsiyalar mehnat bozorida ish bilan bandlikning zamonaviy shakllarini joriy etish, rasmiy va norasmiy ish bilan bandlikni baholashga uslubiy yondashuvlarni ilmiy jihatdan asoslash, masofaviy ish bilan bandlikni tashkil etish asoslarini takomillashtirish va ish bilan bandlik egiluvchanligini tartibga solishning institusional asoslari bo'yicha ilmiy apparatni takomillashtirish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati aholi bandligini oshirish hamda masofaviy ish o'rinlarini tashkil etish bo'yicha maqsadli dasturlar, yo'l xaritalarini shakllantirish, prognozlarni ishlab chiqish, bandlikka ko'maklashish markazlari faoliyatini takomillashtirish, sohaga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlarni tayyorlash, sohani samarali rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqish hamda nazariy bilimlarni boyitish imkonini beradi.

BPO logistik dasturiy mahsulotlar, freelanser va autstaffing, dasturiy mahsulotlar eksporti hajmini oshirish hamda "IT" tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-qo'vvatlash xizmatlarini iqtisodiy baholash mexanizmlarini takomillashtirishning tashkiliy-iqtisodiy, normativ-huquqiy asoslarini takomillashtirish yo'nalishlarida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi Qashqadaryo viloyati kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasi faoliyatida keng foydalanish mumkin.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Raqamli iqtisodiyot sharoitida bandlikning zamonaviy shakllarini joriy etish uslubiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy-amaliy tavsiya va takliflar hamda natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "ish bilan bandlikning zamonaviy shakllari va turlari" tushunchasining iqtisodiy mazmuni bandlikni ta'minlash bilan bog'liq xarajatlarni minimallashtirish, mehnat sifatini ta'minlash va belgilangan muddatlariga rioya qilish maqsadida yuqori ixtisoslashgan kompaniyalar yoki alohida mutaxassislarni jalb qilish orqali mijozning asosiy bo'lmagan funksiyalarini bajarishni o'z ichiga olgan biznes hamkorlikning "yumshoq" (soft) tavsifdagi xizmat turi nuqtai nazaridan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy ma'lumotlardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Elektronika va sxemalar" nomli o'quv qo'llanmani tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 7 maydagi 149-sonli buyrug'i). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida oliy o'quv yurtlari talabalarida mijozning asosiy bo'lmagan funksiyalarini bajarishni o'z ichiga olgan biznes hamkorlikning "yumshoq" (soft) tavsifdagi xizmat turi nuqtai nazaridan takomillashtirilgan ish bilan bandlikning zamonaviy shakllari va turlari tushunchasi yuzasidan nazariy bilimlarni chuqurlashtirish imkoni yaratilgan;

biznes jarayonlar autsorsingi, masofaviy xizmat ko'rsatish va o'zini-o'zi band qilishni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan raqamli platformani joriy etish asosida IT-autsorsing ( $A_{IT}=0,45$ ), frilanser ( $F=0,35$ ) va autstaffing ( $AS=0,2$ ) turlari o'rtasidagi maqbul nisbatni shakllantirish orqali samarali bandlikni ta'minlash taklifidan O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024 yil 19 martdagi 01/00-03/10-2609-son ma'lumotnomasi).

Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida IT-kompaniyalarda dasturiy mahsulotlar eksporti hajmini oshirish hamda IT tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash, tashkilotlarda BPO logistik dasturiy mahsulotlar, frilanser va autstaffing xizmatlaridan foydalanish sifati hamda samaradorligini oshirish imkoni yaratilgan;

ish beruvchi korxonalar va xodimlar o'rtasidagi ishga yollash jarayonlarini tashkil etishni masofaviy ish bilan bandlik tizimini qo'llash imkonini beruvchi raqamli onlayn mehnat birjalari orqali uch tomonlama mehnat munosabatlarini yo'lga qo'yish asosida ish bilan bandlik shakllarini diversifikatsiyalash taklifi O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024 yil 19 martdagi 01/00-03/10-2609-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida raqamli platformadan masofaviy ish bilan bandlik, BPO logistik dasturiy mahsulotlar, frilanser va autstaffing xizmatlarini ko'rsatish, dasturiy mahsulotlar eksporti hajmini oshirishda hamda IT tadbirkorlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash imkoni yaratilgan;

O'zbekistonda tashkilotlar faoliyatining sifat va samaradorligini oshirish, masofaviy ishlash orqali aholi bandligini ta'minlashning zamonaviy shakllarini takomillashtirish hamda dasturiy mahsulotlar eksporti hajmini oshirishda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari ko'rsatish hajmining 2028 yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024 yil 19 martdagi 01/00-03/10-2609-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Qashqadaryo viloyati hokimining 2020 yil 16 oktyabrdagi "Qashqadaryo viloyatida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi HQ-899/10-son qarori va "2022-2026 yillarda Qashqadaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" hamda "Istiqbolli IT-loyihalar" viloyat hokimi sovrini uchun ko'rik-tanlovni o'tkazish to'g'risida"gi nizomini ishlab chiqishda foydalanilgan va trend modellari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi.** Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro, 18 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan va ma'qullangan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 29 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertasiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola (5 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

**Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi.** Tadqiqot ishi kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 137 betda bayon etilgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi asoslangan, maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Raqamli transformatsiya sharoitida ish bilan bandlik shakllarini takomillashtirishning nazariy asoslari va mexanizmlari”** deb nomlangan birinchi bobida raqamli transformatsiya sharoitida ish bilan bandlik shakllarining nazariy asoslari, raqamli iqtisodiyotda norasmiy ish bilan bandlik tizimlarining rivojlanish xorijiy tajribalari, O‘zbekistonda zamonaviy ish bilan bandlikni ta‘minlash mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari bayon etilgan.

So‘nggi yillarda ishsizlik masalasi geosiyosiy vaziyatga bevosita bog‘liqligini isbotlamoqda. Dunyoda ro‘y bergan iqtisodiy inqirozlar ta‘siri har bir mamlakat iqtisodiyotiga, shu o‘rinda, mehnat bozori holatiga ham bevosita ta‘sir etdi. Bunday vaziyatda mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sharoitiga mos ish bilan bandlikning egiluvchan shakllarini joriy etish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ish bilan bandlikning moslashuvchan, egiluvchan shakllarini kengaytirish ish bilan bandlik muammosini yanada yumshatish, yoshlarning ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini ish o‘rinlari bilan ta‘minlash, ularga daromad manbaini yaratish va malakasini oshirib borishga imkoniyat yaratadi. Iqtisodiy subyektlar uchun esa, ish bilan bandlikning egiluvchan shakllarini tashkil etish va ularga xizmat ko‘rsatish, korxonalar xarajatlarini optimallashtirish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda jamiyat taraqqiyoti aholini ish bilan ta‘minlashning yangi shakllari va turlari paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. Ish bilan bandlikning zamonaviy shakllari va turlari bo‘yicha bir qator olimlarning ta‘riflarini qiyosiy tahlillar qilish natijasida muallif tomonidan nazariy yondashuvlar ta‘rifi qo‘yida keltirilgan (1-jadval).

### 1-jadval

#### Ish bilan bandlikning zamonaviy shakllari va turlari bo‘yicha yondashuvlar ta‘riflari<sup>20</sup>


Muallif	Ish bilan bandlik turlari va shakllari
Muallif ta‘rifi	Xarajatlarni minimallashtirish, sifatni ta‘minlash (yahshilash) va belgilangan muddatlarga rioya qilish maqsadida yuqori ixtisoslashgan kompaniyalar yoki alohida mutaxassislarni jalb qilish orqali mijozning asosiy bo‘lmagan funksiyalarini bajarishni o‘z ichiga olgan va biznes hamkorlikning yumshoq (soft) xizmat turi

Endilikda raqamli iqtisodiyotda ishsizlikning mazmuni tubdan o‘zgarmoqda, chunki hozirgi paytda raqamli texnologiyalar orqali ish joylari emas, balki mehnat vazifalari taqsimlanmoqda. Rivojlangan mamlakatlar tajribasini o‘rgangan holda

<sup>20</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

ta'kidlashimiz mumkinki, aholini yangi ish o'rinlari bilan ta'minlashning zamonaviy hamda istiqbolli shakllaridan biri - bu masofaviy ish bilan bandlik hisoblanadi.

Respublikamizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda ish bilan bandlikni ta'minlashning zamonaviy shakli sifatida freelansing va outsorsing (BPO), autstaffing faoliyatini tashkil etish muhim choralardan biri hisoblanadi. Freelansingni qonuniy asosini shakllantirish va alohida ish bilan bandlik turi sifatida qabul qilish, ishsizlik ko'rsatkichini pasaytirishga olib keladi. Bu o'z navbatida, frilansing sohasida moddiy boyliklarni yaratishning samarali modelini yaratish, freelancerlar birjalarini shakllantirish va rivojlantirish, hududlarda ishsizlarni va asosan yoshlarni ish o'rinlari bilan ta'minlash imkonini yaratadi (1-rasm).



1-rasm. Mehnat bozorida freelansingni shakllantirish modeli<sup>21</sup>

Raqamli transformatsiya sharoitida BPO logistik boshqaruvning IT-outsorsing, freelancer va autstaffing turlari bo'yicha bandlikni ta'minlash mexanizmi takomillashtirildi. Masovafiy ish bilan bandlikni tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar davlat, ish beruvchi va xodim o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishi, ularning manfaatlarini himoya qilib, qo'yidagilarni o'zida aks ettirishi maqsadga muvofiqdir.

Dissertatsiyaning **“Raqamli transformatsiya sharoitida ish bilan bandlik tizimlarini rivojlantirishning uslubiy asoslari”** deb nomlangan ikkinchi bobida raqamli transformatsiya sharoitida hukumat va iqtisodiyot tizimlarini istiqbolli rivojlantirish va IT-mutaxassislarni tayyorlash istiqbollari, masofaviy xizmat ko'rsatish va o'zini-o'zi band qilishning zamonaviy usullari yoritilgan.


Milliy va halqaro miqyosdagi samarali, raqobatbardosh iqtisodiy mexanizmlarni yo'lga qo'yishga ijtimoiy xizmatlarni outsorsing va frilanserlik asosida rivojlantirish yo'llari va istiqbollari yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Tashkilotlarda outsorsing va frilanserlikni tashkil etishning zamonaviy shakllari, xizmatlar bozori va uning geografiasidagi asosiy tendensiyalar va rivojlantirish

<sup>21</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

yoʻnalishlari, innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish hamda bu borada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yoʻnalishlaridan hisoblanadi.

Shu oʻrinda raqamli hukumatga doir elementlarni tatbiq etish va raqamli iqtisodiyotni qoʻllab-quvvatlash Oʻzbekistonning yaqin istiqboldagi taraqqiyot rejasidan mustahkam oʻrin olgan. Bu, birinchi navbatda, elektron hujjat almashish ulushini yanada oshirish va davlat xizmatlarining muayyan qismini Davlat xizmatlari markazlari orqali bosqichma-bosqich ravishda elektron shaklga oʻtkazish vazifalariga tegishlidir. Telekommunikasiya va katta hajmli maʼlumotlar infratuzilmasi bu jarayonda muhim vazifani bajaradi.

“Raqamli hukumat” tizimining bugungi kunda amalda boʻlgan arxitekturasida jamiyat hayotida idoralararo integratsiyalashuvni va raqamli idoralararo integratsiyalashuv jarayonini tezlashtirish va tadbirkorlik subʼyektlariga keng imkoniyatlar yaratishni taqazo etmoqda. “Raqamli hukumat 2.0” tizimining taklif etilayotgan arxitekturasida aholi va tadbirkorlik subyektlariga keng imkoniyatlar yaratilgan (2-rasm).




2-rasm. “Raqamli hukumat 2.0” tizimining taklif etilayotgan arxitekturasida<sup>22</sup>

“Raqamli hukumat 2.0” tizimining taklif etilayotgan arxitekturasida idoralararo integratsiya platformasida maʼlumot olish xizmatlarining integratsiyalashgani tufayli koʻrsatilayotgan davlat xizmatlari soni 2026 yil oxiriga qadar 740 taga koʻpaytiriladi.

Zamonaviy ish bilan bandlik egiluvchanligini taʼminlash boʻyicha iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar va ijtimoiy taraqqiy etgan davlatlar tajribalaridan foydalanish hamda amalda qoʻllash mehnat bozorida ish bilan bandlik siyosati samaradorligini oshirish, qonuniy asoslarini ishlab chiqish muhim vosita hisoblanadi. Shunga koʻra, respublikamiz mehnat bozori modeliga xos jahonning yetakchi mamlakatlari tajribasidan foydalanish, masofaviy va oʻzini-oʻzi bandlikning muvofiqlashtirish BFA modeli ishlab chiqildi (3-rasm).

<sup>22</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan



3-rasm. Masofaviy xizmat ko'rsatish va o'zini-o'zi bandlikning muvofiqlashtirish BFA modeli<sup>23</sup>

<sup>23</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Masofaviy va o‘zini-o‘zi bandlik sohalarining kelgusi holatini muvofiqlashtirish maqsadida taklif etilgan BFA modeli quyidagi vazifalarni bajarish lozim, jumladan:

masofaviy ish bilan bandlik, o‘zini-o‘zi bandlik tarmoqlari va unga ta‘sir etuvchi omillarning ma‘lumotlar bazasini shakllantirish;

har bir tarmoq va unga ta‘sir etuvchi omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni, ta‘sir etuvchi omillarini aniqlash;

masofaviy ish bilan bandlik, o‘zini-o‘zi bandlik tarmoqlari uchun alohida model ishlab chiqish;

ishlab chiqilgan modellarni baholash mezonlari bo‘yicha tekshirish;

ahamiyatli hisoblangan modellar orqali bashoratlashda ta‘sir etuvchi omillarning ma‘lum qonuniyatlar asosida prognozini shakllantirish;

bashoratlangan modellar asosida natijaviy omillarga erishish.

Mehnat bozori modeliga xos xorij tajribasidan foydalanib, masofaviy va o‘zini-o‘zi bandlikni muvofiqlashtirishda, logistik biznes dasturiy mahsulotlar eksportini rivojlantirishda, zamonaviy bandlik mexanizmi shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning **“Zamonaviy ish bilan bandlik shakllarini joriy etish va samaradorligini oshirish istiqbollari”** deb nomlangan uchinchi bobda Qashqadaryo viloyatida zamonaviy bandlik shakllarini rivojlantirishning model va algoritmlari, bandlikni rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqishni joriy etish va algoritmlari, raqamlashtirish sharoitida zamonaviy bandlik shakllarini joriy etish samaradorligi asoslari bayon etilgan.

Yuqorida keltirilgan maqsadlardan kelib chiqib aholi va tadbirkorlik sub‘yektlari har tomonlama qulaylik yaratish maqsadida “bpofeelance.uz” raqamli plarformasi ishlab chiqildi va buni dasturiy qism sifatida baholash samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlashda outsorsing va freelansing to‘g‘risida qaror qabul qilish uchun qo‘yidagi ikkita asosiy mezon yondashuvlari mavjud: yagona va ko‘p mezonli. Qoidaga ko‘ra bitta mezon asosida qaror qabul qilinsa, ma‘lum bir moliyaviy ko‘rsatkich ishlatiladi va outsorsing, freelansing tufayli mumkin bo‘lgan iqtisodiy tejamkorlik quyidagi formula orqali hisoblanadi<sup>24</sup>.

$$I_{aut} = \frac{I_{da} - I_{pa}}{B} * 100\% \quad (1)$$

Bu ko‘rsatkich juda cheklangan qiymat bo‘lib, outsorsing sababli korxonalarda tejamkorlikka erishishni ko‘rsatadi, daromad qancha past bo‘lsa, samaradorlik shunchalik yuqori bo‘ladi va daromad miqdori natijaga mutlaqo bog‘liq emasligini ko‘rsatadi.

$$I_a = \sum_{i=1}^n \frac{S_i - P_i}{\left(1 + \frac{d}{100\%}\right)^i} \quad (2)$$

2-formulani mukammallashtirilishi natijasida:

---

<sup>24</sup> Игнатъев А.В. Алгоритм принятия решения о переводе на аутсорсинг функций в сфере икт в малых и средних промышленных предприятиях. Современные исследования социальных проблем (электронный научный журнал), №7(15), 2012


$$Ia = \sum_{i=1}^n \frac{Si - Pi}{(1 + \frac{d}{100\%})^i} - Co + Do \quad (3)$$

Yagona mezonli qaror qabul qilish usullarini ishlab chiqish natijasida ko'p mezonli qarorlar qabul qilish usullari ishlab chiqilgan va umumiy holda quyidagi ko'rinishga ega.

$$E = \sum_{i=1}^n Wi(KAi - KBi) \quad (4)$$

Autsorsing va freelansingdan foydalanish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish texnologiyasining bosqichlari va undan biznes tuzilmalari tomonidan foydalanishning maqsadga muvofiqligini baholash modeli ishlab chiqilgan hamda autsorsing va freelansingdan foydalanish bo'yicha boshqaruv qarorlarini qabul qilish texnologiyasini amalga oshirish doirasida va undan biznes tuzilmalari tomonidan o'z faoliyatida foydalanishning maqsadga muvofiqligi boshqaruv qarorlarini qabul qilish umumlashtirilgan algoritmidan foydalanish tavsiya qilinadi. Tadqiqotda mijozlarning fikr-mulohazalarini tasniflash va korxonalar qoidalarini tahlil qilish usullaridan foydalangan holda frilanserlar uchun aqlli ish tavsiya qilish tizimi ishlab chiqildi. Freelanserlar bajarishi mumkin bo'lgan ish ro'yxatini yaratish uchun mantiqiy intellektual tizim modeli asosida frilanserlar tomonidan bajarilishi mumkin bo'lgan ishlarning tavsiya etilgan metodologiyasi ishlab chiqilgan.

Ko'pgina kompaniyalar iqtidorli dasturchilar va rivojlanish guruhlariga kirish uchun autstaffing xizmatlaridan foydalanishni afzal ko'rishadi. Autstaffing dasturlash loyihalariga, malakali mutaxassislarga kirish, tejamkor yechim, masshtablilik va moslashuvchanlik imkoniyatlarini beradi (4-rasm).




4-rasm. BPO va BPM jarayonlarini muvofiqlashtirish<sup>25</sup>

BPO xizmatlarini ko'rsatishda BPM asosi biznes jarayonlarini loyihalash, amalga oshirish va doimiy ravishda takomillashtirishga qaratilgan tizimli

<sup>25</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

yondashuvdir. BPM asosi tashkilotlar uchun biznes jarayonlarini boshqarish va optimallashtirish uchun ko‘rsatmalar, uslublar, vositalar va eng yaxshi amaliyotlar to‘plamini taqdim etadi hamda quyidagi rasmda taklif etilayotgan mexanizm asosi keltirilgan.

BPO, freelancer va autstaffingni umumiy tizimlashtirilgan va faoliyat olib borilishini joriy qilishni umumlashtirilgan namunaviy algoritmi ishlab chiqilgan va quyida keltirib o‘tilgan (5-rasm).



**5-rasm. Tashkilot amaliyotiga BPO, freelancer va autstaffingni joriy qilishning namunaviy algoritmi<sup>26</sup>**

<sup>26</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Tashkilot amaliyotiga BPO logistik dasturiy mahsulotlar, freelanser va autstaffingni joriy etish imkoniyati va tartibini belgilashda mansabdor shaxslarning ish qulayligini ta'minlash uchun o'zaro bog'liq tadbirlar, bosqichlar va jarayonlarning butun majmuasidan kelib chiqqan holda maxsus algoritmlar ishlab chiqildi.

Tadqiqot ishida mamlakatda AKT xizmatlari eksporti (Y) o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar axborot va aloqa korxonalarini soni (X1), axborot va aloqa iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha xodimlar ish haqi (X2), dasturiy mahsulotlar eksporti (X3), doimiy aholi soni (X4), AKT xizmatlari importi (X5), iqtisodiyotda bandlar soni (X6) asosida ko'p omilli regression model hosil qilish maqsadga muvofiq hisoblandi (2-jadval).

## 2-jadval

### 2010-2023 yillar bo'yicha AKT xizmatlari eksporti va tanlab olingan omillarning yillar kesimidagi ko'rsatkichlari<sup>27</sup>

№	AKT xizmatlari eksporti (ming AQSH doll.) Y	Axborot va aloqa korxonalarini soni (birlikda) X1	Axborot va aloqa iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha xodimlar ish haqi (ming so'm) X2	Dasturiy mahsulotlar eksporti (ming AQSH. doll.) X3	Doimiy aholi soni (ming kishi) X4	AKT xizmatlari importi (ming AQSH doll.) X5	Iqtisodiyot-da bandlar soni (ming kishi) X6
2010	72428.4	4569	1054,2	321.3	28065.8	30488.8	11628.4
2011	135323	4752	121,2	412.5	29123.4	58773.5	11919.1
2012	223546.4	4963	1332,8	596.8	29555.4	67353.5	12223.8
2013	204279.4	5012	1490,7	687.3	29993.5	72025.8	12523.3
2014	203818.2	5456	1620,1	751.5	30492.8	76614	12818.4
2015	156888.6	5897	1759,7	895.7	31022.5	57603.8	13058.3
2016	147502.6	6370	2042,2	945.6	31575.3	54756.5	13298.4
2017	150650.1	6427	2502,2	3567.3	32120.5	59736.4	13520.3
2018	159685.3	6403	3329,6	4987.5	32656.7	47640.1	13273.1
2019	167496.3	6975	3968,8	6226.4	33255.5	72587.1	13541.1
2020	169510.7	7901	4390,5	16451.6	33905.2	132273.8	13236.4
